

ROSA CANINA L. ÓSIMLIGINING GÚLLASH BIOLOGIYASI

R. Mambetqasimova, H. E. Tursunboev

Qoraqalpoq davlat universiteti

ARTICLE INFO.

Kalit sózlar: It burin na'matagining gullash biologiyasi, dorivor xususiyatlari, xalq tabobatida qóllanilishi.

Аннотация

Ushbu maqolada Ranoguldoshlar oilasiga mansub bólgan Rosa canina L. ósimligining gúllash biologiyasining Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Tabiyatsunoslik fakulteti atrofi va Kegayli tumani sharoyitida ótkazilgan tajriba sinovlari natijalari berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Kirish: Respublikamiz florasí yavvoyi dorivor buta ósimliklariga boy hisoblanadi. Ular orasida perspektivali dorivor ósimliklar qatorida mevalari “Tábiiy vitaminlar koncentratí” deb nom olgan na'matak ósimligi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Respublikamizda namatak oilasini 17 turi tarqalgan. Namatakning asosiy dorivor xususiyati – mevalari tarkibida S vitamini (1-8%) bólib, bu dorivor hususiyatiga kóra dunyoda unga teng keladigan ósimlik turi yoq. Namatak mevalaridan asosan arfazetin, bronxitum, karotalin, rozanol, tekas, namatak siropi, namatak bal'zami va shunga o'xshash dorivor preparatlar ishlab chiqariladi. Ular avitaminoz, tsinga, gemofiliya, ateroskleroz va oshqazon-ichak kasalliklarini emlashda, inson organizmida ferment sistemasini aktivlashtirish, undagi tóqimalarni regeneratsiya va tiklanish jarayonlarini kushaytirish, kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishda keng qollaniladi [1].

Biologik tárif: Oddiy na'matak asosan Toshkent, Fargóna, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining past va órta tog tizimlarida daryo va soylarning atroplarida, boglarda, archazorlarda ushrashadi. Oddiy na'matak (*Rosa canina* L.) – balandligi 1,5-2,5 metr ga yetadigan kóp yillik yoyilib ósadigan buta. Kóp yillik butalari kúlrang, yosh butalari jigarrang yashil rangda. Butalari 5-6 mm uzunlikdagi tikanlar bilan qoplangan, ular olov rangli, bo'rtliklariga nisbatan pastga qarab egilgan bóladí. Yaproqlari 5-11 sm uzunlikdagi 5-7 yaproqchalardan iborat. Yaproqchalari 2-5 sm uzunlikta, ellipssimon, teskari tuximsimon shaklda. Gullari bittadan yoki 2-4 ta dan generativ butalarning tepa qismida joylashgan.

Gulbándi 1-1,5 sm uzunlikdagi tuklar bilan qoplangan yoki tuksiz. Gultoj yaproqlari pushti rangda, kamdan-kam hollarda oq rangda bo'lib keladi. Pishib yetilgan mevasi (gipantiy) 1-2 sm uzunlikta, tuxumsimon, tuxumsimon ellips yoki yumaloq. Gulkosa yaproqlari 2 sm uzunlikta, tepa qismida yaproqsimon ósimtalari bor. Mevasi to'liq pishib yetilganda olovrang qizil ranga kiradi. 1 kg mevada 956 mevalari bor. 1 mevasida 31-32 urug bo'lib, 1000 nafar urugini vazni 11,4 g ni tashkil etadi [2].

Biologik xususiyatlari: *Rosa canina* L. – quyosh nurini sevuvchi, lekin soyaga ham chidamli o'simlik. Agar soya yerlarda ekilib óstirilsa ósimlikning faqat yaproqlari o'sadi. Agar gul bo'rtliklari rivojlangan holatda bolsa ham ularning gullari chiroyli va hidli bo'lmaydi. *Rosa canina* L. ning qad ko'tarishi uchun optimal harorat 15⁰C dan 26⁰C gacha oraliqda bo'lishi zarur. Bazí turlari -26⁰C gacha quyi haroratlarga va 35⁰C gacha bo'lgan haroratga chidamli bo'lib keladi. Agar harorat qish pallasida 5⁰C

dan quyi bo'lsa va yozda 30⁰C dan yuqori bo'lsa, o'simlik uxlab qolishi va yomon qad ko'tarishi mumkin.

O'simlikda bo'rtik rivojlanib boshlashidan gullashiga qadargi davrda suvga ko'proq muhtoj baladi.

Rosa canina L. ósimligining Qoraqalpog'iston sharoyitida gullash biologiyasi: Na'matak ósimligining Qoraqalpog'iston sharoyitida gullash davrida juda chiroyli va gózal kórinishga ega bo'ladi. Na'matak ósimligining gullash biologiyasini Kegeyli tumani sharoyitida 2022-2023 yillarda gullash muddatlarini o'rganib shiqildi. 2022-yili *Rosa canina L.* ning gullash davomiyligi 16 kun davom etdi. Bu vaqt 1-may kuni oralig'idan boshlab gullab boshladi. 8-may kuni yalpi gullashni boshladi. 2023-yili esa *Rosa canina L.* ning gullash davomiyligi 18 kun davom etti. 26-apreldan boshlab gullashni boshladi. 4-may kuni yalpi gullashni boshladi.

Kuzatilgan yili	Gullash davri			
	Boshlanishi	Yalpi gullashi	Tugashi	Gullash davrin
2022	01.05.2022	08.05.2022	15.05.2022	16 kún
2023	26.04.2023	04.05.2022	14.05.2023	18 kún

Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universitetining Tabiatshunoslik fakulteti atrofida ósib rivojlanayotgan *Rosa canina* ning 2022-2023-yillardagi gullash biologiyasini o'rganganda 2022-yili 29-aprel kuni gullab boshlagan bo'lsa 8-mayda yalpi gullay boshladi. 2023-yili 24-aprel kundan e'tiboran gullab boshladi va 30 -apreldan yalpi gullashni boshladi.

Kuzatilgan yil	Gullash davri			
	Boshlanishi	yalpi gullashi	Tugashi	Gullash davri
2022	29.04.2022	08.05.2022	20.05.2022	21 kún
2023	24.04.2023	30.04.2023	18.05.2023	24 kún

Rosa canina L. ósimligining dorivor xususiyatlari. O'simlik mevasi tarkibida juda ko'p miqdorda C vitamini (18% gacha boradi). P, K, B guruhi vitaminlari va flavanoidlar, organik kislotalar, qand, pektin, oshlovchi unsurlar, tuzlardan kaliy, temir, marganes, fosfor, kalsiy, magniy tuzlari bor.

Meva etida E vitamini va moylar bor. Mevasidan tayyorlanadigan xolosas preparati jigar kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Xalq tabobatida damlama va qaynatmalari oshqozon - ichak kasalliklari, bachadondan qon oqishini to'xtatuvchi, isitma tushuruvchi, o't va siydik haydovchi sifatida ishlatiladi [3].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, *Rosa canina L.* ósimligi ana shunaqa qimmatbaho o'simliklardan biri hisoblanadi. Bu oddiy o'simlikning qanchalik foydali, shifoli ekanligini ham bilabermaymiz.

Rosa canina L. Qoraqalpog'iston sharoyitida dorivor va dekorativ o'simlik sifatida ekip óstirilmogda. Bu o'simlikni ekib o'stirishimiz uchun optimal harorat 15 dan 26⁰C gacha bo'lishi zurrur. Shu bilan birga o'simlikda kurtak rivojlanib boshlashidan gullashiga qadar oraliqda ko'proq suqorib turishimiz zurrur boladi, sababi bu davrda o'simlik suvga juda muhtoj bo'ladi.

Rosa canina L. ning hozirgi vaqtda ilmiy tibbiyotda ham va xalq tabobatida ham keng qo'llanib kelinmogda. Bu o'simlikdan tayyorlangan mahsulotlardan oshqozon-ichak kasalliklarini, jigar kasalliklarini davolashda, eng asosiysi avitaminoz kasaligini davolashda keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.T. Berdiev Na'matak tabiiy vitaminlar xazinasini/. T.: 2018, (140-142 b).
2. H.X. Xolmatov, U.A. Ahmedov Fafmakognoziya/. T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti 1997, (162-164b)
3. Internet malumotlari
4. Avitsenna.uz